Texnologiya soʻzi yunoncha: “texne” – mahorat, sanʼat; “logos” – taʼlimot maʼnolarini bildiradi. Bu soʻz sanoatda yoki qishloq xoʻjaligida tayyor mahsulot olish uchun ishlab chiqarish jarayonida qoʻllaniladigan metod va usullar yigʻindisini bildiradi. Taʼlim jarayoniga nisbatan esa oʻqish va oʻqitishning oʻzaro uzviyligini, aloqadorlik bosqichlarini ajratish, taʼlim-tarbiya jarayonida belgilangan maqsadga erishish uchun bajariladigan ishlarni muvofiqlashtirish, ularning ketma-ketligi hamda bosqichma-bosqichligini taʼminlash, rejalashtirilgan barcha ishlarni talab darajasida bajarishni anglatadi. Yaʼni taʼlim texnologiyasi tushunchasi taʼlim berish sanʼati, taʼlim berish mahorati maʼnolarini ifodalaydi. “Yangi pedagogik texnologiya” deyilganda esa taʼlim berishning yangicha sanʼatini ishga solib uni samarali taslikil etish jalton andozalari darajasiga koʻtarish nazarda tutiladi.

Taʼlim amaliyotida oʻqitishning turfa texnologiyalari mavjud boʻlib shulardan biri hamkorlikka asoslangan taʼlim texnologiyasidir. Oʻqituvchi bilan taʼlim oluvchi hamkorligini tashkil etish muammosi barcha davrlarda ham oʻta dolzarb masalalardan boʻlib, mazkur hamkorlikning nazariy asoslari pedagogik sinergetika doirasida tadqiq etilgan. Bu taʼlim beruvchi uchun ham, taʼlim oluvchi uchun ham oʻz faoliyatini mustaqil tarzda tashkil etishga oid nazariy yondashuvlardan biri boʻlib, oʻqituvchi-oʻquvchi hamkorligini toʻgʻri taslikil etish bilan bogʻliq yangi dunyoqarashdir¹.

Sinergetika (yunoncha **sunergeia** – hamkorlik, hamjihatlik) – tizimlarning oʻz-oʻzini mustaqil tarzda tashkil etish nazariyasi, oʻz-oʻzini boshqarish, nomuntazam hodisalarni oʻrganish, dunyoviy hodisalarni yangicha izohlash, tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy murakkab tizimli jarayonlarning tabiatini bilishga qaratilgan ilmiy yoʻnalish, tafakkur usulidir.

Sinergetika, yaʼni hamkorlik ilmiy yoʻnalish sifatida XX asrning 60 - 70-yillarida shakllangan. XXI asrda paydo boʻlgan pedagogik sinergetikani esa taʼlim-tarbiya jarayonining subʼyektlari hamkorligini anglashga koʻmaklashadigan nazariy-amaliy yondashuv sifatida talqin etish oʻrinlidir.

Maʼlumki, XX asming oxiri XXI asming boshlariga kelib taʼlim jarayoni subʼyektlari faoliyatiga nisbatan yangicha yondashuvlar vujudga keldi. Bu yondashuvlarning ahamiyati shundaki, shaxslararo munosabatlar oʻzaro hamkorlik jarayonida yangi sifat koʻrsatkichlariga ega boʻladi va kutilgan natijani beradi. Pedagogik hamkorlik taʼlim jarayoni subʼyektlari faoliyatida yangicha sifat oʻzgarishlarining shakllanishi va namoyon boʻlishiga koʻmaklashadi. Pedagogik hamkorlikning muhim jihati shundaki, u taʼlim jarayoni subʼyektlari faoliyatini muayyan tarzda uygʻunlashtirishga xizmat qiladi.

Kuzatishlar koʻrsatmoqdaki, nafaqat turgʻunlik, balki mustaqillikning dastlabki yillarida yaratilgan pedagogikaga oid darslik va ilmiy manbalarda ham «pedagogik hamkorlik» tushunchasi bevosita muammo sifatida koʻtarilmagan.

¹ Азимов Э. Г., Щукин А. Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). - Москва: «ИКАР», 2009. - С. 247.

Vaholanki, pedagogik hamkorlik va uni o'qitish kesimida qo'llash zamonaviy ta'limda hal etilishi zarur bo'lgan muammolardandir. Maktab o'qituvchilari pedagogik hamkorlik, uning dialektik tabiati, o'ziga xos xususiyatlari, samaradorligi, bunday hamkorlikni tashkil etish yo'llari haqida yetarlicha tasavvur, bilim va tajribaga ega emaslar. Bularning barchasi mazkur hodisani har tomonlama tadqiq etish ehtiyoji mavjudligidan dalolat beradi.

Hamkorlik masalasining pedagogika ilmida chuqur o'rganilmaganligi sababi quyidagilardan iborat:

- 1) pedagogik hamkorlik hodisasi milliy pedagogika va didaktika uchun yangi fenomen ekanligi;
ta'lim jarayonini sub'yekt-sub'yekt asosida tashkil etish kechagi jamiyatda shakllangan talablar maqsadiga monand emasligi;
- 2) o'qituvchi va o'quvchi faoliyatida sub'yekt-ob'yekt munosabatlari barqarorlashib qolganligi;
- 3) ijtimoiy-siyosiy sabablarga ko'ra soha mutaxassislarining e'tiborini jalb qilmaganligi;
- 4) bu tushunchaning o'qituvchi o'rganib qolgan hokimlik faoliyatiga mos tushmasligi;
- 5) pedagogik faoliyatning tezkorligi, bilimlarni o'zlashtirishda o'quvchi erkinligining ustuvorligi va h.k.lardir.

Pedagogik hamkorlik jarayon sub'yektlari uchun o'zligini namoyon qilish imkoniyatidirki, unda o'qituvchi bilan o'quvchining o'zaro hamkorligi: o'quvchining erkinligi; ijodkorligi; bu jarayonda tartibsizlikning namoyon bo'lishi singari jihatlarni yuzaga keltiradi.

Adabiyot o'qitishda pedagogik innovatsiyalar. «Innovatsiya» – lotincha so'z bo'lib «yangilanish, yangilik, o'zgartirilish» ma'nolarini anglatadi. Bu atama dastlab G'arb mamlakatlarida XIX asrda paydo bo'lib, ijtimoiy hayotga boshqa bir mamlakat tilidan o'tgan va uning tumush tarziga kirib borayotgan yangi tushunchalami anglatadi. XX asrning boshlarida ilmning «innovatsiya» degan yangi sohasi paydo bo'ldi va u mamlakatda paydo bo'lgan texnik yangiliklarni o'rganish bilan shug'ullandi. Pedagogik innovatsiya tushunchasi G'arb mamlakatlarida XX asming o'rtalaridan boshlandi, milliy pedagogika ilmida esa keyingi yigirma yil davomida paydo bo'ldi va maxsus o'rganila boshlandi.

Pedagogik jarayonga nisbatan innovatsiya tushunchasi ta'lim - tarbiyaning maqsadi, mazmuni, usul va shakllari, o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatini tashkil etish kabi faoliyatlarga kiritilgan yangiliklarni anglatadi. Pedagogika fanidan joy olgan «ta'limdagi innovatsiya» va «pedagogik innovatsiya» atamaları sinonim sifatida qo'llaniladigan tushunchalardir.

Pedagogik innovatsiya – ta'lim va tarbiyaning samaradorligini oshirish maqsadida uning mazmuni, texnologiyasi hamda tashkil etish kechimiga kiritilgan yangiliklarni anglatadi. Shunday qilib innovatsiya jarayoni ta'lim-tarbiyani tashkil etish va uning mazmunini o'stirishga kiritilgan yangiliklardan iborat tushunchadir.

Yangi ta'limiy usul yoki bir necha usullar yig'indisi – *texnologiya*, vosita va usullardan iborat yangiliklar – *novatsiya*, ana shu vositalarni pedagogik amaliyotga

tatbiq etish kechimi esa *innovatsiyadir*. *Pedagogik innovatsiya* ta'lim-tarbiya tizimini bir holatdan tubdan yangilangan boshqa holatga o'tkazishga olib keladigan turg'un unsur va o'zgarishlarni maqsadga muvofiq tarzda kiritishni ko'zda tutadigan izchil jarayondir.

Pedagogik innovatsiya jarayoni quyidagi uch bosqichdan iborat bo'ladi:

- 6) yangi g'oya yoki kashfiyotni yuzaga keltirish bosqichi;
- 7) g'oyaga ishlov berish, uni amaliyotda foydalanish mumkin bo'ladigan holatga keltirish bosqichi;
- 8) yangilikni joriy etish bosqichi.

Shunga muvofiq ravishda pedagogik innovatsiya jarayonini ilmiy g'oyani amalga oshirish va ijtimoiy-pedagogik muhitda shundan kelib chiqadigan o'zgarishlarni o'zaro muvofiqlashtirishdan iborat kechim deyish mumkin. Yangilikni pedagogik amaliyotga olib kirish va bu yangilikni boshqarish tizimini tashkil etishga qaratilgan faoliyat innovatsion faoliyat deyiladi.

Ta'lim jarayoni uchun maxsus loyihalashtirilgan, tadqiq etilgan yoki pedagogik tashabbuskorlik natijasi sifatida tasodifan kashf qilingan yangiliklar ham pedagogik innovatsiyalar hisoblanadi. Muayyan yangilikni ilmiy-nazariy jihatdan asoslash, yangi samarador o'qitish texnologiyalari, amaliyotga joriy etishga tayyorlangan biror pedagogik tajribaning ilmiy-texnologik bayoni kabilar pedagogik innovatsiyaning mazmunini tashkil etishi mumkin. Yangilik – bu pedagogika fani yutuqlarini amaliyotga joriy etish, ilg'or pedagogik tajribalardan foydalanish jarayonida o'quv-tarbiya kechiminin yangi sifatga ega bolishini ta'minlaydigan vositalardan iborat.

Pedagogik innovatsiyalar davlat organlari, pedagogik jarayonni boshqaradigan ma'muriyat singari yuqori tashkilotlar tomonidan emas, balki fan va ta'lim tashkilotlari xodimlari, ya'ni pastdan ishlab chiqarilishi hamda tavsiya etilishi kerak. Yuqoridan pastga tushirilgan innovatsiyalar hech qachon kutilgan samarani bermaydi, ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qilmaydi.

Pedagogikada ilmida innovatsiyalarni innovatsion o'zgarishlar shiddati yoki innovatsiyalik darajasiga ko'ra quyidagi sakkiz toifaga ajratish mumkinligi ko'rsatiladi:

Birinchi toifadagi innovatsiyalar mavjud ta'lim tizimi yoki uning biror qirrasiga xos jihatlarni bir qadar takomillashtirgan holda qayta yaratishga qaratilgan bo'ladi.

Ikkinchi toifa innovatsiyalarga ta'lim-tarbiya tizimining sifatini o'zgartirmagan holda unda miqdor o'zgarishlari qilishni ko'zda tutadigan yangiliklar kiradi.

Uchinchi toifa innovatsiyalar mavjud pedagogik tizimdagi vositalarning o'rmini almashtirish, ularni qayta joylashtirish, qo'llash qoidalarini takomillashtirish orqali yuzaga kelgan innovatsiyalardir.

To'rtinchi toifa innovatsiyalar eski ta'lim modelidan voz kechmagan holda ta'lim tizimini yangi sharoitga moslash ko'zda tutilib amalga oshiriladigan innovatsiyalardir.

Beshinchi toifa innovatsiyalarda ta'lim tizimining ayrim qismlariga oddiy sifat o'zgarishlari kiritish orqali mavjud muammoga yangi yechim topish ko'zda tutiladi.

Oltinchi toifa innovatsiyalarda ta'lim-tarbiya tizimining «yangi avlodi» yaratilishiga urinishlari. Mavjud tizimga xos xususiyatlarning ko'pchiligi o'zgarishga yuz tutadi.

Yettinchi toifa innovatsiyalarni amalga oshirish natijasida ma'rifiy tizimlarning o'zgacha sifat xususiyatlariga ega bo'lgan «yangi turi» tashkil etiladi.

Sakkizinchi toifa innovatsiyalar ta'lim-tarbiya tizimidagi eng yuksak darajadagi yangilanishlar tufayli bu tizimning tubdan o'zgartirilib, tamomila yangi sifat xususiyatlariga ega bo'lishiga erishilgan oliy darajasidir².

Pedagogik innovatsiyalarni ularning yuzaga kelishi holatiga ko'ra quyidagicha tasnif etish mumkin:

1. Tasodifiy innovatsiyalar.
2. Foydali innovatsiyalar.
3. Tizimli innovatsiyalar.

Ta'lim-tarbiya tizimining ichki mantiq'i rivojidan kelib chiqmaydigan, tashqaridan sun'iy ravishda kiritiladigan pedagogik innovatsiyalar *tasodifiy innovatsiyalar* deyiladi. Ko'pincha bunday innovatsiyalar yuqori tashkilotlarning buyrug'iga ko'ra joriy etiladi va yaratilganidanoq samarasizlikka mahkum bo'ladi.

Muayyan ta'lim-tarbiya muassasalari vazifasi bajarilishiga muvofiq keladigan, lekin ilmiy-tashkiliy jihatdan atroflicha tayyorlanmagan, pedagogik tizim bilan yaxlit vujudga aylanib ketmagan pedagogik yangiliklar *foydali innovatsiyalarni* yuzaga keltiradi.

Aniq belgilangan maqsad va vazifalarga ega, mavjud ilg'or pedagogik qarashlar hamda an'analarga tayangan holda yaratilgan, o'quvchi va o'qituvchilar manfaatiga mos keladigan innovatsiyalar *tizindi innovatsiyalar* sanaladi. Bunday innovatsiyalar juda puxta tayyorlangan bo'ladi, keng miqyosda yoyilishi ko'zda tutiladi. Malakali kadrlar, tashkiliy qurilma, tegishli moddiy-texnik baza hamda ilmiy-metodik materiallar bilan ta'minlangan bo'ladi⁷.

Adabiy ta'limda innovatsion metodlardan foydalanish. Ma'lumki, ta'lim jarayonini amalga oshiruvchi o'quv ishlari, uning mazmuni, shakl va metodlarini zarur emotsiya bilan ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Hissiy holatlar hamisha ruhiy bezovtalik, ko'ngil hayajonlari, o'zgani tuyish, quvonch, nafrat, hayrat singari tuyg'ular bilan bog'liq. E'tibor qilish, eslab qolish, anglash jarayonlariga shaxsning chuqur ichki bezovtaligi, hayajoni qo'shilganda u faollashadi, zaruriy intellektual marraning egallanishi ta'minlanadi. Insonning his-tuyg'ulari ishtirokisiz haqiqatga intilish va erishish mumkin emas. Ayniqsa, adabiy ta'limda hamma narsaga erishish uchun his-tuyg'u birinchi o'rinda turadi. Gap faqat uni zarur shakl va miqyosda uyg'ota bilishda. Hissiy bezovtaliklar, insonning ruhiy muvozanatdan chiqishi, asosan, hayrat orqali namoyon bo'ladi. Badiiy asarda

²Азимов Э. Г., Шукин А. Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). - Москва: «ИКАР», 2009. - С. 286.

ifodalangan hodisa, asar qahramonlari tuygʻulari, ulardagi gʻayrioddiylik, ruhiy kechinmalar ifodasining samimiyligidan hayratlanish oʻquvchida turli hissiyotlarni uygʻotadi.

Adabiyot darslarida emotsional holatlarni vujudga keltirishda oʻqituvchi nutqining hissiyotga yoʻgʻrilganligi, tiniqligi, badiiyliigi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Faqat bu holat oʻta samimiy boʻlishi kerak. Busiz oʻqituvchining nutqi foydali axborotgina boʻlib, oʻquvchiga hissiy taʼsir koʻrsatolmaydi. Shu bilan birga, darsning qiziqarililigini taʼminlashda bilishdan zavqlanish hissining ham oʻni katta. Hissiyot oʻquvchini muammoning ichiga kirishga undaydi. Koʻngil ochish hislari bilan bilim olishdagi hislarning farqi shunda.

Polshalik taniqli pedagog V.Okon oʻquvchining oʻqitish kechimidagi mustaqilligini taʼminlash uchun asosiy eʼtiborni³ taʼlimning oʻzlashtirish, kashf etish, his qilish, intilish singari yoʻllariga qaratgan⁴. Oʻzlashtirish yoʻli bilan amalga oshiriladigan taʼlim, uning fikricha, oʻquvchidan tayyor bilimlarni xuddi oʻqituvchisi aytib berganday, bir tizimga solingan shaklda eslab qolishni talab qiladi. Bu holatda asosiy ish xotiraning zimmasiga tushadi. Bunday taʼlimning natijasi u yoki bu bilimlarni esda saqlab qolishdangina iborat. Taʼlimning oʻzlashtirish yoʻlida aqliy mehnat bilan bogʻliq oʻquv koʻnikmalari kam shakllanadi.

Qayta kashf etish yoʻlidan borilganda taʼlim jarayonini ilmiy tadqiqotlarga imkon qadar yaqinlashtirish nazarda tutiladi. V. Okon qayta kashf etishning ikki muhim jihatini ajratadi: a) oʻquvchilarda tadqiqotchilik faolligining ortishi; b) bilimlarni mustaqil ravishda oʻzlashtirish. U bu yoʻlning yana bir jihatiga-mehnat orqali erishilgan bilim oʻquvchi shuurida chuqur oʻrnashib qolishiga ham diqqat qaratadi⁵. Bu usuldan foydalanilganda bilimlarni oʻzlashtirish tezlashadi, oʻquvchilarning nazariy va amaliy muammolarni hal etishdagi faolligi ortadi, koʻnikmalari mustahkam boʻladi. Bunday yondashuv asosan tafakkur mustaqilligi, kuzatuvchanlik, tasavvur, eʼtibor va xotiraning rivojlanishiga, umumiy aqliy madaniyatga katta taʼsir koʻrsatadi. Yaʼni, kashf etish asnosida tuyilgan lazzat har qanday odamni yangi-yangi kashfiyotlar sari yetaklaydi.

His qilish yoʻli bilan bilim olishni tavsiflab, V. Okon Polsha maktablarida bilimlarni oʻquvchini ruhiy muvozanatdan chiqarish orqali oʻzlashtirilishiga erishish ustida ish olib borilganiga toʻxtaladi. Olimning fikricha, oʻquv materialini his qilish orqali oʻzlashtirish maʼlum ijobiy xususiyatlarga ega. Unda bilimlar insonning ijodiy faoliyati orqali oʻzlashtiriladi. Hissiyot bilimni oʻquvchining ongiga mustahkam joylaydi⁶. Bunda taʼlimning tarbiyaviy ahamiyati ortadi. Chunki bu tadbirlar qanchalik darajada taʼlimiy boʻlsa, shunchalik tarbiyaviydir. Insonga oʻz xudbinligi, nafsini yengishga imkon beradigan ijobiy tuygʻularning

³ Азимов Э. Г., Щукин А. Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). - Москва: «ЖАР», 2009. - С. 28*.

⁴ Оконъ В. Основы проблемного обучения. - Москва: «Просвещение», 1998.-С.198.

⁵ Азимов Э. Г., Щукин А. Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). - Москва: «ИКАР», 2009. - С. 203.

⁶ O'sha asar, 211-bet.

rivojlanishi uning kamolotini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishi milliy tarbiyashunoslik tarixidan ham ma'lum.

Rus olimi S.Juykov o'quvchi mustaqil fikri faollashuvi haqida so'z yuritib, bu faollikning yuzaga kelishidagi psixologik shart-sharoitlar, uni amalga oshirish va rivojlantirish yo'llari, o'quvchi tafakkurini boshqarish, nazorat qilish usullari hamda fikriy faoliyatda o'quvchi individualligi masalalariga to'xtaladi⁷. O'quvchining intellektual faolligi biror o'quv masalasini hal etishda aqliy faoliyatning mustaqil ravishda ishtirok etishi va o'z-o'zini nazorat qilishida (aqliy operatsiyalarni bajarishda zarur usullarni qo'llash, tafakkur yo'llarini qidirishda) ko'zga tashlanadi. Bunday faollikni oshirishni S.Juykov o'qituvchi, darslik va boshqa o'quv ash'yolari ta'sirida bajariladigan faoliyatdan mustaqil ravishda savol-topshiriq qo'yishga, ularning o'quvchi tomonidan bajarilishida qolip- lardan voz kechib, masalalarni o'z bilimi va malakalariga tayanib, mustaqil hal etishida ko'radi. Uning fikricha, o'quvchi aqliy faoliyati mustaqilligi rivojlanishi masalaning muammolilik darajasiga bog'liq.

Metodlarni tasniflashda ular yordamida o'quvchilarga tayyor bilimlarni zo'rlab singdirishga emas, balki ularning tafakkur imkoniyatlarini hisobga olishi, fakt va tajribaga asoslanishiga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Bir qator pedagog va psixologlar tomonidan ta'lim metodlari orasidan: muammoli, suhbat, evristik, tadqiqot, taqqoslash, induktiv, deduktiv singari umumdidaktik metodlarning samarali ekanligi ta'kidlangan. o'qituvchining ta'lim metod va usullari haqidagi bilimi qanchalik chuqur, ularni ma'lum maqsad yo'lida qo'llash imkoniyati qanchalik keng bo'lsa, har bir darsni tashkil qilish oson, unumli, foydali va jonli bo'ladi. Darsning o'zlashtirilish darajasi uning ko'rgazmaliligi, tashkiliy jihatdan benuqsonligidan tashqari, o'quvchilar mustaqil fikrlashini faollashtirish, ularning nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olishini ham taqozo etadi. *«Ta'lim metodlari, – deb yozgan edi M.Maxmutov, – o'quvchi rivojlanishining yangi bosqichida tafakkur psixologiyasida to'plangan, ular tomonidan bilimlar va faoliyatni o'zlashtirish jarayonini boshqarishni yaxshilashga imkon beradigan barcha ma'lumotlarni qamrab olishi kerak»⁸.*

Agar dars avvaldan ma'lum bilimlarga asoslanib o'tilsa, mantiqan yangi dalil va tushunchalarga tayanilmasa yoki o'rganilayotgan mavzu avval o'qilganlarning yangi bosqichiga aylanmasa, o'qituvchi ta'limni qanchalik baland darajada, qanday ilg'or metodlar bilan uyushtirmasin, muvaffaqiyat qozonolmaydi. Ta'lim metodlari faqat ma'lumotni qanday berishni belgilamaydi. Ular materialning tizimi va uni ayni shu yoi bilan ishlashga tayyorlashni ham nazarda tutadi. Ya'ni u o'quv materialiga singdirilgan bilimni o'quvchi o'zlashtira oladigan tarzda berishni, bolalarda bilim olish qobiliyatini iivojlantirishni ham qamrab olgan bo'lishi kerak.

⁷ Жуйков С. Ф. Проблема активизации учащихся в психологии обучения. // Советская педагогика 1966. № 8. - С. 68 - 80.

⁸ Махмутов М. И. Современный урок. - Москва: «Педагогика», 1985. - С. 9-10.

Та'лим jarayonida ikkita harakatlanuvchi sub'yekt. o'qituvchi bilan o'quvchining har biri o'z maqsadiyo'lida faoliyat ko'rsatishlar va ta'lim metodi ulaming faoliyat usuli ekan, bu sub'yektlaming maqsadga erishish yo'llari har xil bo'lishi mumkinligi ham ko'zda tutilishi kerak. O'qituvchi faoliyatida yo'naltirish, bilimlaming o'quvchi tomonidan o'zlashtirilishini ta'minlash yetakchilik qiladi. O'quvchining faoliyatida esa o'z-o'zini tarbiyalash, o'qish-o'rganishning samarali yo'llaridan foydalanish ko'zga tashlanadi.

Badiiy asarda ilgari surilgan g'oya, fikr va mulohazalarni anglash uchun ularning mantiqiy asosini topish talab qilinadi. Shuning uchun o'quvchi tafakkuri va faoliyatida mustaqillikni ta'minlovchi mantiqiy metodlardan alohida maxsus darslarda emas, umuman adabiy ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida, yangi darsni tushuntirishda ham, o'tilganlarni mustahkamlashda ham, topshiriqlarni bajarishda ham foydalanish mumkin. O'quvchida ma'naviy barkamollikni ta'minlash asosi bo'lgan mustaqil tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishda mantiqiy metodlar ko'proq samara beradi.

Ta'lim jarayonidagi o'zgarishlardan o'quvchi ham xabardor qilinishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Har bir mashg'ulot darsning maqsadi va mavzuni o'rganishning rejasini ma'lum qilishdan boshlansa, o'quvchilarga darsda o'z faoliyati yo'nalishini aniqlab olishga imkon beriladi. O'qituvchi tomonidan e'lon qilingan mana shu qisqagina rejada yangi mavzu mazmunining muhim jihatlari belgilab qo'yilgan bo'ladi. Bu, o'z navbatida, o'quvchini darsga, bilimlarni o'zlashtirishga ham ruhan tayyorlaydi.

Xulosa qilib aytganda ta'limning innavatsion metodlaridan o'rni bilan foydalanish adabiy ta'lim samaradorligining garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Азимов Э.Г., Щукин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). –Москва: «ИКАР», 2009. –Б. 247.
2. Азимов Э.Г., Щукин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). –Москва: «ИКАР», 2009. –Б. 286.
3. Азимов Э.Г., Щукин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). –Москва: «ЖАР», 2009. –Б. 280.
4. Оконнь В. Основы проблемного обучения. –Москва: «Просвещение», 1998. –Б. 198.
5. Азимов Э.Г., Щукин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). –Москва: «ИКАР», 2009. –Б. 203.
6. Жуйков С.Ф. Проблема активизации учащихся в психологии обучения. // Советская педагогика 1966. № 8. –Б. 80.
7. Махмутов М.И. Современный урок. –Москва: «Педагогика», 1985. –Б. 190.

¹Suyumov Jurabek, ²Lutfillayev Mahmud.
¹Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU FF, assistant
²SamDU professori, p.f.d

OLIV O'QUV YURTLARIDA KOMPYUTER IMITATSION MODELLARINI O'QUV JARAYONIGA TADBIQ ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. Maqolada imitatsion model tushunchasi, o'quv jarayoniga innovatsion o'qitish usullarini joriy etish, imitatsion modellashtirishning rivojlanish strategiyasi va ularni qurish uchun sxemalar, imitatsion modellardan foydalanishning afzalliklari aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: Kompyuter imitatsion model, innovatsion ta'lim, virtual laboratoriya, kasbiy kompetentsiya, modernizatsiya.

¹Суюмов Джурабек, ²Лутфиллаев Махмуд
¹ТУИТ ФФ им. Мухаммада аль-Хорезми, ассистент
²Профессора СамГУ

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРИМЕНЕНИЯ МОДЕЛЕЙ КОМПЬЮТЕРНОЙ ИМИТАЦИИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ В ВУЗах

Аннотация. В статье рассматриваются концепция имитационной модели, развитие информационных технологий, внедрение инновационных методов обучения в современный образовательный процесс, стратегия развития имитационного моделирования, схемы построения имитационных моделей, преимущества использования имитационных моделей.

Ключевые слова: компьютерная имитационная модель, инновационное образование, виртуальная лаборатория, профессиональные компетенции, модернизация.

¹Suyumov Jurabek, ²Lutfillaev Mahmud.
¹TUIT FF them. Muhammad al-Khwarizmi, assistant
²Professors of Samarkand State University

THEORETICAL BASIS OF APPLICATION OF COMPUTER SIMULATION MODELS IN THE EDUCATIONAL PROCESS IN UNIVERSITIES

Annotation. The article discusses the rapid development of information technology, the introduction of innovative teaching methods in the modern educational process, the concept of a simulation model, a strategy for the development of simulation, schemes for constructing simulation models, the advantages of using simulation models.

Keywords: computer simulation model, innovative education, virtual laboratory, professional competence, modernization.

Hozirgi vaqtda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi zamonaviy o'quv jarayoniga innovatsion o'qitish usullarini joriy etish imkonini beradi, ular orasida kompyuter imitatsion modellari (KIM) alohida ahamiyatga ega.

Imitatsion modellashtirish (inglizcha imitatsiondan) – matematik vositalar to'plami, maxsus imitatsion kompyuter dasturlari va dasturlash texnologiyalari yordamida amalga oshiriladigan analog modellashtirishning keng tarqalgan turi bo'lib, ular o'xshash jarayonlar orqali haqiqiy kompleksning tuzilishi va funktsiyalarini maqsadli o'rganishga imkon beradi.

Imitatsiya, muammolarni hal qilish vositasi sifatida o'zining dastlabki rivojlanishini 1950-1960-yillarda kompyuterlarning yaratilishi bilan bog'liq holda vujudga keldi. Imitatsiyon modellarning ilmiy fan sifatida paydo bo'lishi va rivojlanishi hisoblash quvvatining rivojlanishi va o'sishi bilan chambarchas bog'liq. Hozirgi vaqtda kompyuter imitatsion modellari fanning ko'plab sohalariga kirib bordi, ular orasida an'anaviy ravishda birinchi navbatda – iqtisodiyot, ekologiya va harbiy sohalarni keltirishimiz mumkin.

Kompyuter imitatsion modellari (KIM) innovatsion ta'lim texnologiyalari bo'lib, ular an'anaviy o'qitish usullaridan shubhasiz afzalliklarga ega. KIM o'qituvchisiga o'quv rejasida qo'shimcha imkoniyatlar beriladi. Maxsus fanlar bo'yicha bilimlarni qo'llashni virtual laboratoriya ishi misolida ko'rsatish mumkin. Korxonada va bozorda (tashkilotchi tomonidan) vaziyatni oldindan belgilash imkoniyati mavjud. Va, albatta, alohida afzallik – bu kompyuterda o'rnatilgan mezonlarga muvofiq baholashning ob'ektivligi hisoblanadi.

Kompyuterda modellashtirish tushunchasi an'anaviy “kompyuterli modellashtirish” tushunchasidan kengroq talqin qilinadi. Tadqiqotimiz doirasida biz kompyuter modellashtirishni uning kompyuter modelidan foydalanishga asoslangan murakkab tizimni tahlil qilish yoki sintez qilish muammolarini hal qilish usuli sifatida ko'rib chiqamiz.

Imitatsion modellashtirish bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Imitatsion modellarni qurish uchun bir nechta sxemalar mavjud.

Yuqori sifatli imitatsion modelni yaratish uchun biz quyidagilarni bilishingiz kerak:

modeldagi tizimning dinamikasini (harakatini) ma'lum bir tarzda ifodalash (buni hodisalar, ishlar, jarayonlar, operatsiyalar orqali tasvirlash mumkin);

model vaqtini o'zgartirish usulini aniqlash (bu erda doimiy qadam bilan modellashtirish va maxsus holatlar uchun modellashtirish farqlanadi).

Imitatsion modellardan foydalanish real tizimda tajriba o'tkazish va boshqa usullardan foydalanishga nisbatan ko'p afzalliklarni beradi.

Vaqt. Imitatsion model tajriba uchun zarur bo'lgan o'zgarishlarning optimalligini bir necha daqiqada aniqlash imkonini beradi.

Takroriylik. Kompyuter imitatsion modelidan foydalanib, eng yaxshi variantni aniqlash uchun turli parametrlar bilan cheksiz ko'p tajriba o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Aniqlik. An'anaviy hisoblash matematik usullari yuqori darajadagi abstraktsiyani talab qiladi va muhim tafsilotlarni hisobga olmaydi. Kompyuter

imitatsion modellari formulalar va qat'iy matematik bog'liqliklardan foydalanmasdan, tizimning tuzilishini va uning jarayonlarini tabiiy tarzda tasvirlash imkonini beradi.

Ko'rinish. Kompyuter imitatsion modeli tizim jarayonini tasavvur qilish, uning strukturasi sxematik aniqlash va natijalarni grafik ko'rinishda ko'rsatish qobiliyatiga ega. Bu sizga natijada olingan yechimni vizual tarzda taqdim etish va unga kiritilgan g'oyalarni mijoz va hamkasblarga yetkazish imkonini beradi.

Ko'p qirralilik. Kompyuter imitatsion modeli har qanday sohadagi muammolarni hal qilish imkonini beradi: ishlab chiqarish, logistika, moliya, sog'liqni saqlash va boshqalar. Har bir holatda, model real ob'ektlarga ta'sir qilmasdan keng ko'lamli eksperimentlarni o'tkazishga imkon beradi.

O'quv jarayonida kompyuter imitatsion modellarini qo'llash amaliyoti talabalarning yuqori darajasini, o'rganishning intensivligini, kasbiy kompetentsiyalarning o'sishiga yo'naltirilganligini ko'rsatadi.

Kompyuter imitatsion modellarini keng joriy etish oliy kasbiy ta'limning butun tizimida "yangi davr"ni ochadi. Kompyuter imitatsion modellarini keng ko'lamda qo'llash ta'limni modernizatsiya qilishning asosiy vazifasini – sifatli ta'limni keng ko'lamli rivojlanishiga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kiselev V.V., Goncharenko V.M. Matematicheskoy modelirovaniye sotsialno-ekonomicheskix protsessov, KnoRus-2021
2. Lutfillayev M.X. Razrabotki metodicheskoy sistemi virtualnix resursov na osnove kompyuternix imitatsionnix modeley, "Kazaxskiy jurnal Novosti nauki" nauchno-texnicheskii jurnal 2015 №1. 9-19.
3. Lutfillayev M.X. Razrabotka i vnedreniye virtualnix laboratoriy na osnove kompyuternix imitatsionnix modeley (na primere predmeta "zoologiya bespozvonochnix"). Sovremennie tendensii razvitiya nauki i texnologiy periodicheskii nauchniy sbornik po materialam XI Mejdunarodnoy nauchno prakticheskoy konferensii. Belgorod, 2016 №2-1 c. 57-61.
4. Lutfillayev M.X., Lutfillayeva F.M. Razrabotka virtualnix resursov dlya uchebnoy literature dlya inklyuzivnogo obrozovaniya na osnove kompyuternix imitatsionnix modeley. Materiali 15-y mejdunarodnoy konferensii "Obrozovaniye cherez vsyu jizn: Neprerivnoye obrozovaniye v interesax ustoychivogo razvitiya" Astana, 2017, C. 126-130.
5. Suyumov J.Yu. Theoretical basis of active teaching technology on the basis of computer imitation models/Academica an international multidisciplinary research journal 7 (11), 205-210/2021.

п.ф.ф.д. (PhD) Мухамеджанова Ситора
БухМТИ, “Хорижий тиллар” кафедраси

ТЕХНИК ОЛИЙ ЎҚУВ ЮРТЛАРИДА БЎЛАЖАК МУТАХАССИСЛАРНИНГ КАСБИЙ ФАОЛИЯТГА ОИД ИНГЛИЗ ТИЛИНИ ЎҚИТИШ ЖАРАЁНИДА КОММУНИКАТИВ МАДАНИЯТНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕТОДЛАРИ

Аннотация. Ушбу мақолада техник университетнинг бўлажак мутахассисларининг коммуникатив маданиятини ривожлантиришда инглиз тилини касбий фаолиятга тайёрлашнинг тавсия этилган интерактив усуллари тасвирланган.

Калит сўзлар: коммуникатив маданият, бўлажак мутахассислар, техник университетлар, интерфаол методлар, лингводидактика, таълим, ўқитиш усуллари.

Мухамеджанова Ситора (PhD) по педагогическим наукам
БИТИ, кафедры “Иностранных языков”

МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КУЛЬТУРЫ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ У БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗОВ

Аннотация. В данной статье описаны рекомендуемые интерактивные методы подготовки английского языка к профессиональной деятельности в развитии коммуникативной культуры будущих специалистов технического вуза.

Ключевые слова: коммуникативная культура, будущие специалисты, технические вузы, интерактивные методы, лингводидактика, образование, методика преподавание.

Mukhamedjanova Setora PhD in Pedagogical Sciences
at BETI of “Foreign Languages” department

METHODS FOR THE DEVELOPMENT OF COMMUNICATIVE CULTURE IN THE PROCESS OF TEACHING ENGLISH FOR FUTURE SPECIALISTS OF TECHNICAL UNIVERSITIES

Annotation. This article describes the recommended interactive methods of preparing the English language for professional activity in the development of the communicative culture of future specialists in technical institutes.

Key words: communicative culture, future specialists, technical institutes, interactive methods, linguodidactics, education, teaching methods.

Жаҳон педагогика илми таълим тизимини сифат жиҳатдан ислоҳ қилиш, олий таълимга инновация, илғор хорижий тажриба, ахборот ва педагогик технологияларни кенг жорий этиш, меҳнат бозорида чет тилларини ҳам лингвистик, ҳам ижтимоий-маданий аспектларда мукаммал

ўзлаштирган юқори малакали мутахассис кадрлар тайёрлаш билан бирга, таълим соҳасига талаб ва эҳтиёжни янада кучайтирмоқда. Хусусан, техника университетларида соҳавий йўналишларда мутахассисларнинг хорижий тилларда касбий лаёқатларини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Мамлакатимизда кечаётган глобаллашув жараёнида педагогика соҳасини ривожлантириш, олий таълим муассасаларининг Техника таълим йўналишларида хорижий тилларни ўқитиш методикасини такомиллаштириш, фан-техника ва технологиялардан фойдаланиш алоҳида ўрин эгаллайди. "... физика ва чет тилларини ўрганишнинг устувор йўналиш этиб белгиланиши, шу мақсадда таълимнинг барча бўғинларида ушбу фанларни ўқитиш сифатини тубдан ошириш лозимлиги" [2] тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев асосий вазифалардан бири сифатида белгилаб берган эди. Ҳамда, 2021-йил 19-майдаги ПҚ-5117-сон «Ўзбекистон Республикасида хорижий тилларни ўрганишни оммалаштириш фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори [3] меҳнат бозорида касбий фаолиятга йўналтирилган кадрларга бўлган талаб ортиб бораётганлигидан келиб чиққан ҳолда методик ишларни ташкил этиш, хорижий тажрибаларни ўрганиш, бўлажак мутахассис кадрларнинг касбий фаолиятига йўналтирилган инглиз тилида коммуникатив маданиятни ривожлантириш методикасини такомиллаштиришни тақозо этмоқда.

Демак, бўлажак мутахассисларнинг инглиз тилини ўрганишда коммуникатив компетенцияси кўникмаларини шакллантириш билан биргаликда коммуникатив маданиятини ҳам ривожлантириш зарур. Чунки, соҳа вакиллари нафақат чет тилида касбий сўзлардан фойдалана олиши, балки мулоқот жараёнида эътибор берилиши керак бўлган маданий аспектларни ҳам инобатга олишлари муҳимдир.

Техника ОТМларда бўлажак мутахассисларнинг касбий фаолиятга йўналтирилган коммуникатив маданиятни ривожлантиришда чет тилларни ўқитишнинг анъанавий методларини таҳлил қилишда айрим камчиликлар кузатилмоқда. Анъанавий таълим бўлажак мутахассис кадрларнинг ўз-ўзини ўрганиш қобилиятларини ривожлантиришга эмас, балки умумий таълим даражасини оширишга ҳам қаратилган. Айтиб ўтиш жоизки, кўп ҳолларда талабалар фақат ўқитувчи томонидан ўқув жараёнида тақдим этиладиган тайёр лексик материаллардан фойдаланишга ўрганиб қолишган. Техника ОТМ бўлажак мутахассис кадрлари ўртасида таълимни индивидуаллаштириш учун уларда мотивацияни ривожлантириш лозим бўлади. Бу ерда Е.А.Глухованинг қуйидаги фикрларини келтириш ўринли деб ҳисоблаймиз: «Бўлажак мутахассис кадрнинг индивидуал таълим механизми - диалектик фикрлашни ривожлантиради, турли хил фанлардан маълумотларни ўзлаштиришга, умумлаштиришга ва касбий фаолиятга йўналтирилган муаммоларни ҳал қилиш имконини беради» [4, 27].

Бугунги кунда техника ОТМлари бўлажак мутахассисларининг касбий фаолиятига йўналтирилган чет тилларини ўқитиш тизимини такомиллаштириш, шунингдек, мутахассис кадрларнинг эҳтиёжларини ҳисобга олган ҳолда янги лингводидактик методларни қўллаш лозимлигини тақозо этади.

Маълумки, техника ОТМ талабалари аниқ фанларга ихтисослаштирилганлиги учун уларда танқидий фикрлаш ҳар томонлама ривожланган. Ушбу қобилиятлардан фойдаланиб, бўлажак мутахассис кадрларнинг касбий фаолиятига йўналтирилган инглиз тилида коммуникатив маданиятни ривожлантиришга ўргатиш мумкин ва бунинг учун эса интерфаол методлардан фойдаланиш зарур шартлардан ҳисобланади. Интерфаол методлар қўлланганда талабаларнинг юқори даражадаги фаолияти намоён бўлади. Бўлажак мутахассис кадрларнинг фаоллигини рағбатлантиради ва эркин фикр алмашишига туртки беради.

Олий таълимда чет тилларни ўқитишнинг асосий мақсади бўлажак мутахассис-кадрларни касбий фаолиятга оид инглиз тилида коммуникатив маданиятини ривожланишига йўналтиради. Бу бир томондан, муҳим ижтимоий аҳамиятга эга бўлса, иккинчи томондан, методик жиҳатдан ўзини оқлаган ҳисобланади.

Ҳозирги ривожланиб бораётган давр техника олий ўқув юртлари талабалари чет тилида ўқиш, ёзиш, эшитиш ва мулоқот қилиш кўникмаларини эгаллашнинг зарурлигини талаб қилади. Замонавий таълимда касбий фаолиятга йўналтирилган чет тилини мукамал эгаллаш касб даражасининг ўсиши билан ўзаро боғлиқдир [8, 118].

Мамлакатимиздаги ижтимоий эҳтиёжлардан келиб чиққан ҳолда, бўлажак мутахассисларни тайёрлашнинг давлат таълим стандартлари асосида олий таълим муассасаларида ҳар бир фанни ўқитишни турли таълим босқичларига мувофиқ олиб бориш лозим. Фанларни ўқитишдан мақсад ва вазифалар аниқ белгилаб қўйилган [1, 4-32]. Бугунги кунда чет тилларни ўқитиш замон талабларига кўра методик изланишлар тизимини такомиллаштиришни тақозо этади.

Д.М.Исроилованинг фикрига кўра, «бугунги кунда Техника ОТМларда чет тилларини ўқитиш тизимини такомиллаштириш, янги шакл ва усулларни излаш зарурлигини англашмоқда. Бўлажак мутахассисларнинг нафақат эҳтиёжларини ҳисобга олиш, балки уларнинг имкониятлари ва қобилиятларини инобатга олиш зарур» [9, 79].

Олий таълим муассасаларидаги мавжуд ҳолат инглиз тили ўқув дастурлари, дарсликларини таҳлил қилиш уларнинг барчаси ҳам машқ ва топшириқларнинг нутқ фаолияти турларини (тинглаб тушуниш, гапириш, ўқиш ва ёзиш) интеграциялаштириб ўтишга йўналтирилмаганлигини дарс жараёнида кўп ҳолларда нутқ фаолиятининг айрим турларигагина аҳамият берилаётганлигини кўрсатди [5, 65-95]. Бу эса талабалар коммуникатив маданиятининг тўлиқ шаклланиши ва ривожланишига салбий таъсир этиб, нутқ фаолиятининг айрим томонлари заифлашишига олиб келаётганлигини

кўрсатди. Олий таълим муассасаларининг талабалари бўлажак касбига оид, нутқ фаолияти турларини уйғунликда ривожлантириб борилишигина уларнинг малакали мутахассис бўлиб етишишларини кафолатлайди. Техника ОТМларида инглиз тилини ўқитиш мазмунини танлашда фанлараро интеграцияни ҳисобга олиш керак. Бўлажак мутухассис кадрларнинг касбий фаолиятига оид инглиз тилида коммуникатив маданиятни ривожлантиришга «кўприк» бўлиб хизмат қилиши мумкин. Яъни, чет тилини ўрганиш жараёнида бўлажак мутахассис кадр ўз мутахассислигини ўрганади ва касбий маҳоратини ривожлантиради.

Ф.М.Литвинко ўз ишларида лингводидактиканинг чет тиллари билан алоқа механизмлари фаолияти ва уларнинг шаклланиш йўлларида оид умумий қонунларини таъкидлаб ўтган [11]. Шунингдек, лингводидактик тадқиқотнинг объекти тилларни ўрганиш жараёни ва тадқиқи учун назарий асос бўлиб хизмат қиладиган лингвистик таълим тушунчалари, тамойиллари, мазмуни, ўқитишнинг ташкилий шакллари, тадқиқот механизмлари ва ўқув жараёнини лойиҳалаштириш кабиларни санаб ўтиш мумкин.

Лингводидактиканинг предмети – бу тилни ўқитиш (ўқитувчи фаолияти), ўрганиш (талаба фаолияти) таълим материалларининг мазмунини танлаш тамойиллари ва шахсий билимларни ўзлаштириш технологиясидир. Лингводидактика, асосий ёки иккинчи тил бўлишидан қатъий назар, ҳар қандай тилни ўзлаштириш қонунларини ўргатади [6, 17-23].

Агар М.Джусупов сингари олимларимизнинг асарларини ўрганиб чиқсак, лингводидактика ва методикага яна бир таъриф бериш мумкин: «Лингводидактика тилларни ўқитишнинг назарий асосларини яратиш билан шуғулланса, методика эса лингводидактик тадқиқот натижаларини ўқув жараёнига жорий этиш билан шуғулланади» [7, 25].

А.К.Крупченко касбий лингводидактиканинг асосчиларидан бири бўлиб, у ўз асарларида – «касбий лингводидактика дэганди чет тилини турли соҳа вакилларининг касбий фаолиятларидан келиб чиқиб ўқитиш методологиясини ишлаб чиқиш ва унинг таркибий қисмларини бўлажак мутахассис кадрларнинг чет тилида касбий коммуникатив компетенцияни шакллантиришга қаратилган»лигини таъкидлаб ўтган. Ҳозирда, Техника ОТМларда таълим мазмунини танлашда касбий лингводидактикани ҳисобга олиш масаласи кўриб чиқилмоқда. А.К.Крупченко касбий лингводидактиканинг пайдо бўлиши профессионал ахборот ва тажриба алмашиш учун халқаро восита сифатида чет тилини ўзлаштиришда миллионлаб муҳандислар, олимлар ва бошқа касблар вакилларининг объектив ижтимоий эҳтиёжи билан белгилаб қўйилганлигини таъкидлайди [10, 310].

Бўлажак мутахассисларнинг коммуникатив маданиятини ривожлантиришда инглиз тили дарсларининг имкониятлари жуда кенг ҳисобланади. Айниқса, бўлажак олий маълумотли мутахассис кадрларнинг касбий фаолиятига оид инглиз тилида коммуникатив маданиятини ривожлантиришга қаратилган интерфаол методлардан фойдаланиш юқори

натижа беради. Қуйида ана шундай интерфаол методлардан тавсиялар берилган:

Developing of communicative culture technology (DCCT) – коммуникатив маданият технологиясини ривожлантириш методи бўлиб, кўп тармоқли, муаммоли мавзуларни мумкин қадар қисқа вақтда сифатли ва тизимли ўзлаштиришга қаратилган. Методни қўллаш технологиясининг моҳияти шундан иборатки, бунда бўлажак олий маълумотли мутахассис кадрларнинг касбий фаолиятига йўналтирилган инглиз тилида коммуникатив маданиятини ривожлантиришнинг турли йўналишлари бўйича инновацион ахборотга эга бўлади. Айни пайтда уларнинг алоҳида элементлари муҳокама этилади. Масалан, ижобий ва салбий томонлари, афзаллик ва камчиликлари белгиланиб, гуруҳнинг жамоавий музокараси мобайнидаги фикрлари асосида қарор қабул қилинади. Бу эса бўлажак олий маълумотли мутахассис кадрларнинг касбий фаолиятига йўналтирилган инглиз тилида коммуникатив маданиятини ривожлантиришда муҳим омил бўлиб хизмат қилади [13, 1415].

Portfolio of pedagogical ideas of professional development (PIPD) – Касбий фаолиятни ривожлантиришнинг педагогик фикрлар портфолиоси. Бу метод касбий фаолиятни ривожлантиришнинг педагогик фикрлар портфолиоси бўлиб, фикрлаш жараёнида маълумотни олий маълумотли мутахассис кадрлар идрок қилиши учун қулай шаклда – мантикий ва ассоциатив схемаларда акс эттиришнинг график усули бўлиб, мураккаб мавзуларни максимал ўзлаштириш ва тушуниш, лойиҳалар яратиш ва ўқув назоратларига аъло даражада тайёрланишга ёрдам беради. Ушбу метод мутахассисларнинг коммуникатив маданиятини ривожлантириш жараёнида мустақил фикрлашига, ўз фикрларини эркин баён этишига ҳамда уларда касбий фаолиятга йўналтирилган инглиз тилида коммуникатив маданиятини ривожлантиришга қаратилган бўлиб, одатда, бундай методлар, ўқув машғулотларида бўлажак мутахассисларни кичик гуруҳларга ажратган ҳолда ўтказилади.

Developing language skills strategy (DLSS) – Тил кўникмаларини ривожлантириш стратегияси. Бу метод тил кўникмаларини ривожлантириш стратегияси бўлиб, оғзаки баён қилишнинг интерфаол методи ҳисобланади. Шунингдек, у бўлажак олий маълумотли мутахассис кадрларнинг касбий фаолиятига йўналтирилган инглиз тилида коммуникатив маданиятни ривожлантиришда талабаларнинг билимларини аста-секин ўзаро фикрлашиб ўзлаштиришларига олиб келувчи пухта ўйланган саволлар тизимидир. Метод такрорлаш, мустаҳкамлаш ва янги маълумотларни баён қилишда қўлланилади. Бу саволларни қўллаш жараёнида педагогнинг битта саволига талабалар битта аниқ тўғри жавоб беришлари кераклиги назарда тутилади [12, 157].

Бу йўл қисқа методик ҳаракат бўлиб, аниқ топшириқ, вазифани ҳал қилишга қаратилгандир. Чет тилини ўқитишда бўлажак мутахассисларнинг индивидуал ишлаш, машғулотда жуфт-жуфт бўлиб ишлаш, жамоа бўлиб ишлаш шакллари билан ўқув машғулотларини олиб боришда намоён бўлади.

Фикримизни яқунлар эканмиз, бўлажак олий маълумотли мутахассисларнинг коммуникатив маданиятини ривожлантиришда касбий фаолиятига оид инглиз тилига тайёрлашда, юқорида тавсия этилган интерфаол методлардан фойдаланиш ўқитишнинг замонавий технологияларидан бири бўлиб ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2013 йил 8 майдаги «Узлуксиз таълим тизимининг чет тиллар бўйича давлат таълим стандартини тасдиқлаш тўғрисида»ги 124-сонли қарори. 4-32 б. <https://lex.uz/docs/2165717>.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2020 йил 29 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси Электрон ресурс: http://www.uza.uz/oz/...prezidentimiz_majlisga-navbatdagi-murojaatnomasi-29-dekabr. Мурожаат санаси: 03.01.2021 йил.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2021 йил 19 майдаги ПҚ-5117-сон «Ўзбекистон Республикасида хорижий тилларни ўрганишни оммалаштириш фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори. <https://lex.uz/docs/5426736>
4. Глухова Е.А. Межпредметные связи как средство самообразования студентов в вузе. Автореф. дисс.кан. пед. наук. Челябинск, 2010. –27 с.
5. Гулямова М.Х. Инглиз тилини ўқитишда талабалар коммуникатив компетенциясини ривожлантиришга интегратив ёндашув. Пед. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Т.: 2019. 65-95 б.
6. Джусупов М. Лингводидактика и методика в полинаучной системе языкового образования//Русский язык за рубежом. № 2. – М.: 2009. 17-23 с.
7. Джусупов М. Социоллингвистика, лингводидактика, методика (взаимосвязь и взаимообусловленность)// Русский язык зарубежом. - №1. –М.: 2012. 22-28 с.
8. Жданько О.И Методика формирования профессионально ориентированной лексической компетенции обучающихся в техническом вузе: дис. кан. пед. наук. Нижний Новгород, 2016. –118 с.
9. Исроилова Д.М. Профессионально ориентированное обучение студентов английскому языку с учётом межпредметных связей в нефилологических вузах (на примере технологического факультета): дис... канд. пед. наук (PhD) – Т.: 2020. –146 с.
10. Крупченко А.К. Введение в профессиональную лингводидактику монография. – М.: МФТИ, 2005. –310 с.
11. Литвинко Ф.М. Лингводидактика учебно-методические материалы по учебной дисциплине для специальности магистратуры. 1-21 81 05 Инновации в обучении языкам. <http://philology.bsu.by> (дата обращения: 6.11.2018)
12. Мухамеджанова С.Дж. Нофилологик таълим йўналишларида таҳсил олаётган талабаларга инглиз тилини ўқитиш жараёнида коммуникатив маданиятни ривожлантириш методикаси. Технологик ва профессионал таълимни модернизациялаш, муаммолар ва ечимлар// Республика онлайн илмий-техник анжуман материаллари тўплами. Бухоро, ноябрь 2020. -Б. 155-

158.

13. Mukhamedjanova Sitorabegim. Development of communicative culture of ESP students in the process of teaching English language. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 2020. Vol. 10 (11). -P. 1413-1418.

Bazarbaeva Albina.

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti

SHAXSNING BAHOLASH BILAN MAQOL TUZILISHLARNING TARKIBIY VA SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarining antroposentrik proverbiyal shakllanishini tahlil qilishning asosiy xususiyatlari, ularning tashqi (yoshi, tashqi ko‘rinishi, sog‘lig‘i, professional ish bilan bandligi, jamiyatdagi mavqei) va ichki (aqliy holati, tabiati, atrof-muhitga psixologik reaksiyalar) xususiyatlarini tavsiflash uchun ma’lum parametrlar bo‘yicha tasnifi o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: badiiy kontekst, usul, tuzilma, semantika.

Базарбаева Албина

Доцент Узбекского государственного университета мировых языков

СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОВЕРБИАЛЬНЫХ ОБРАЗОВАНИЙ С ОЦЕНКОЙ ЧЕЛОВЕКА

